

***TILSHUNOSLIK VA METODIKA  
MASALALARI***

**«Muharrir»  
Toshkent – 2019**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

# **YAXSHILAR YODI O'CHMAYDI SIRA**

*(dotsent Vafo Sharipovich  
Egamberdiyevning 80 yilligiga bag'ishlanadi)*

**TOSHKENT  
«Muharrir» nashriyoti  
2019**

<u>Юсупова Д.</u>	<u>БухДУ магистранти</u>	<u>Х.Худойбердиева шеърларидаги баъзи полисемантик сўзлар хақида</u>	
Ёкубова Л.	<i>Ромитан т. 13-мактаб ўқитувчиси</i>	Agnonim soʻzlar xususida	
Йўлдошева Д.	<i>БухДУ доценти</i>	Nostandart topshiriqlar – taʼlim samaradorligini oshirish omili	
<u>Йўлдошева Д.</u> <u>Юсупова Д.</u>	<u>БухДУ доценти</u> <u>БухДУ магистранти</u>	<u>6-sinfda otlarning tuzilishiga koʻra turlarini botanika mavzulari bilan bogʻlab oʻqitish</u>	
Йўлдашева Х.	<i>Қариши ХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси</i>	Бадий матнда коммуникант феъл-атворини ифодаловчи бирликларнинг социал хосланиши	
Зойирова Х.	<i>Когон т. 17-мактаб ўқитувчиси</i>	Она тили дarsida grammatik ertakdan foydalanish	
Зокирова З.	<i>Ғиждувон т. 10-мактаб ўқитувчиси</i>	Она тили mashgʻulotlarida adabiyot materiallaridan foydalanish	
Ўраева Д. Шарипова М.	<i>БухДУ профессори Шифиркон т. 1-мактаб ўқитувчиси</i>	Иқбол Мирзо шеърларида этнофольклористик тушунчаларнинг бадий талқини	
Ғайбуллаева Н.	<i>БухДУ ўқитувчиси</i>	Evfemizmlarning oʻrganilishiga doir	
Ғуломова Ш.	<i>БухДУ ўқитувчиси</i>	Gender tilshunosligi va uning rivojlanishi xususida	
Шамсиддинов М.	<i>БухДУ магистранти</i>	Баъзи фразеологик бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида)	
Шарипова Л.	<i>БухДУ доценти</i>	“Бола ботир” достонида фольклор таъсири ифодаси	
Шарипова Ғ. Йўлдошева Д.	<i>БухДУ талабаси</i> <i>БухДУ доценти</i>	Til ijtimoiy mohiyatga ega hodisa sifatida	
Шокулов Д.	<i>Когон т. 8-мактаб ўқитувчиси</i>	Она тили машғулоти учун ўқув топшириқлари	

<b>darajada ekanligiga ko'ra (7ta so'z)</b>	<b>- bamisoli - misli – degandek</b>
<b>Qo'llanish doirasining tor-kengligiga ko'ra (6ta so'z)</b>	<b>Kasal - betob - notob - bemor - nosog' – xasta</b>
<b>Bo'yoqdorlik belgisining kuchli bo'lishiga ko'ra (8ta so'z)</b>	<b>Kekkaygan-gerdaygan-kerilgan-dimog'dor-kalondimog'-kerik-manman- takabbur</b>
<b>Qo'llanilish doirasining oz-ko'pligiga ko'ra (4ta so'z)</b>	<b>Ko'r - basir - so'qir – ojiz</b>

Tilshunoslik bo'yicha tavsiya etayotgan nostandart topshiriqlarimizdan (talabalar tomonidan bajarilishi ko'zda tutilgan ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri) ijodiy faoliyat tajribalari bosqichini aniqlashda qo'llaniladigan nazorat turi sifatida foydalanish mumkin. Bu talabalar tomonidan aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasashni, ya'ni ijodiy fikr yuritishni talab etadi.

Xulosa shuki, butun mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida tub islohotlar[1] amalga oshirilayotgan bir davrda an'anaviy shakl va usullardan voz kechishimiz, samara bera oladigan yangiliklar, masalan, nostandart topshiriqlardan unumli foydalanib, ta'lim samaradorligining oshishini ta'minlamog'imiz zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ 2909-сон Қарори.

2. 5120100–Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари.–Тошкент, 2017.–45 бет.–6-бет.

3. Лернер И.Я., Скаткин М.Н. О методах обучения. – М.: Педагогика, 1979. – стр.115-121.; Розиков О., Огаев С., Махмудова М., Адизов Б. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 184-202-б.

4. Йўлдошева Д., Ҳамроева Ш. Она тили таълимида замонавий педагогик технологиялар.–Тошкент: Турон замин зиё, 2017.–135 бет.

*Yo'ldosheva D.N–BuxDU dotsenti*

*Yusupova D.Y.–BuxDU magistranti*

### **6-SINFDA OTLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARINI BOTANIKA MAVZULARI BILAN BOG'LAB O'QITISH**

*Annotatsiya:* Maqolada o'rta umumta'lim maktablarining ona tili mashg'ulotlarida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash tajribasidan namuna keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* ona tili, botanika, fanlararo aloqadorlik, malaka, ko'nikma.

**1.Darsning maqsadi:** a) *ilmiy maqsad:* o'quvchilarda otlarning tuzilishiga ko'ra turlari va ulardan nutqda to'g'ri, o'rinli foydalana olish haqida bilim, malaka va

ko'nikma hosil qilish; **b) tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarda ona-tabiatga muhabbat ruhini tarbiyalash; **d) rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarda qiyoslash, taqqoslash asosida xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

**2. Asosiy qism. Asosiy tushuncha va atamalar:** otlarning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda otlar; qo'shma otlar va ularning imlosi; juft va takroriy otlar; qisqartma va murakkab otlar

**3. Darsni tashkil etish texnologiyasi: Metod:** aqliy hujum. **Shakl:** kichik guruhlarda ishlash. **Usul:** aralash, noodatiy o'quv topshiriqlar ustida ishlash. **Vosita:** 6-sinf "Ona tili" darsligi, 6-sinf "Botanika" darsligi, turli jadvallar va mavzuga oid slaydlar.

**4. Darsning borishi. Tashkiliy qism.** (salomlashish, davomatni aniqlash, sinf tozaligiga, ob-havoga, tabiatdagi yangilanishlarga, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga e'tibor qaratish).

**Dars shiori:** *Biz tilni asraymiz har nedan ortiq, Yagona olamni asragansimon. Bobolardan qolgan noyob bu tortiq, Toki avlodlarga yetolsin omon.*

**Uy vazifasini so'rash** o'ziga xos tarzda tashkil etiladi.

**1-topshiriq.** «So'z ustuni» o'yin-topshirig'i bilan boshlanadi. O'qituvchi sinf o'quvchilarini (soniga qarab) 5ta kichik guruhchaga bo'ladi. Ularga 6-sinf "Botanika" darsligidan olingan "Gul" nomli matnning birinchi qismi va shu matn asosida berilgan jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi. Topshiriq ijrosi uchun guruhlariga 4-6 daqiqa vaqt ajratiladi. Tekshirish uchun esa 4-5 daqiqa vaqt sarflanadi. (Matn videoproektor orqali minitorda ko'rsatilishi ham yoki guruhchalarga qog'oz variantda tarqatilishi ham mumkin.)

## GUL

(1-matn)

*Gul yopiq urug` o`simliklarning jinsiy ko`pavish organi bo`lib, shakli o`zgargan novdadir. U gul o`rni, gulqo`rgon, changchi va urug`chidan tashkil topgan. O`simliklar qaysi sistematik birlikka mansubligiga qarab gullari xilma-xil bo`ladi.*

*Gulga inson qadim zamonlardan qiziqib kelgan. Ular bilan bog`liq bo`lgan turli afsonalar ham yaratilgan. Gul o`simliklar hayotida katta ahamiyatga ega. Undan meva (urug`) hosil bo`ladi.*

*Siz bodom, o`rik, shaftoli, olma, nok, jiyda kabi mevali daraxtlarning gulini erta bahorda, yozda va kuzda ochiladigan yovvoyi va madaniy o`simliklar gullarini ko`p ko`rgansiz.*

*O`simliklarning guli novdasiga bandi bilan birikib turadi va unga **gulband** deyiladi. Gulbandning yuqori qismida biroz kengaygan joy –gulo`rni bor, unda gulning hamma qismlari joylashadi. Gulbandi shakli va o`lchami bilan bir-biridan farq qiladi.*

*Tabiatda gulbandi rivojlanmaydigan o`troq gullar ham uchraydi.*

buyum nomlarini anglatuvchi otlar	xos umumiy nomlarni ifodalovchi otlar	joy nomlarini bildiruvchi otlar	jarayon nomini ifodalovchi otlar	amaliyot nomi, xususiyat, harakat, holat, payt nomlarini ifodalovchi otlar

Guruhlar mazkur jadvalni (taxminan) quyidagicha to'ldiradilar:

<b>Narsa- buyum nomlarini anglatuvchi otlar</b>	<b>Shaxsga xos umumiy nomlarni ifodalovchi otlar</b>	<b>O'rin- joy nomlarini bildiruvchi otlar</b>	<b>Faoliyat, jarayon nomini ifodalovchi otlar</b>	<b>Belgi- xususiyat, harakat, holat, payt nomlarini ifodalovchi otlar</b>
<i>gul, urug', o'simlik, organ, novda, gulqo'rg'on, changchi, urug'chi, afsona, meva, bodom, o'rik, shaftoli, olma, nok, jiyda, daraxt, gulband</i>	<i>inson</i>	<i>o'rin, bandi, joy, gulo'rni, tabiat</i>	<i>hayot</i>	<i>Shakl, birlik, zamon, ahamiyat, bahor, yoz, kuz, qism, o'lcham,</i>

Har bir guruhdan tanlangan bittadan a'zo jadvallarda yozganlarini o'qiydi, zarurat bo'lsa, guruh a'zolari javoblarni izohlaydilar. Va shu asosda ot so'z turkumi yuzasidan 6-sinfda (ham 5-sinfda) o'tilgan mavzular takrorlanadi.

G'olib guruhlarga rag'bat kartochkalari beriladi.

Yangi mavzu bayoni ham o'ziga xos tarzda tashkil etiladi va mavzu misollari yuqorida berilgan matnning davomi sifatida taqdim etiladi.

Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilar uchun "So'z tuzilishi" mavzusi yangilik emasligini, mazkur mavzu 5-sinfda ham, "Fe'l" mavzusi tarkibida ham o'tilganligini eslatadi va o'quvchilar hukmiga havola etilgan jadvalga berilgan matndan o'tning tuzilishiga ko'ra turlariga bittadan misol yozadi va mavzuni tushunish «O'zim topaman» o'yin-topshirig'i bilan davom etadi.

**2-topshiriq «O'zim topaman»** o'yin-topshirig'i bilan boshlanadi. O'quvchilar hukmiga havola etilgan slayd yoki qog'oz variantdagi "Gul" matnining davomi va quyidagi jadvalga diqqatlarini qaratadilar:

#### GUL (davomi)

(2-matn)

**Gul**–quyidagi to'rt qismdan tashkil topgan:

**Gulkosacha** – gulni tashqi tomondan o'rab turadigan qavat. U gulkosachabarglardan tashkil topgan. Gulkosacha yashil va boshqa ranglarda bo'ladi.

**Gultoj** – guldagi gulkosachadan ichkarida joylashgan gulqo'rg'on qavati. U gultojbarglar yig'indisidan iborat. Gultoj turli rangda bo'ladi.

**Changchi** – gulqo'rg'on ichida joylashgan muhim qismi. U ikki qismdan: **changdon** va **changchi** ipidan tashkil topgan. Changchi iplari changdonni ushlab turadi va gulo'rni bilan bog'laydi. O'simlikning turiga qarab changchilar bittadan bir nechtagacha bo'lishi mumkin. Changchi iplarning soni va shakli gulga bog'liq. Shunga ko'ra, changchi iplari alohida-alohida, qo'shib yoki tutam hosil qilib gulo'rniga joylashadi. Ayrim gullarda changchi iplari bo'lmaydi.

**Urug'chi** – gulning o'rtasida (markazida) joylashgan eng muhim qismi. U



***Barcha guruhlar uchun jadval***

<b>sodd a tub otlar</b>	<b>sodda yasama otlar</b>	<b>qo‘shma otlar</b>	<b>juft otlar</b>	<b>takrori y otlar</b>

O‘qituvchi eslatmasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

<b>sodd a tub otlar</b>	<b>sodda yasama otlar</b>	<b>qo‘shma otlar</b>	<b>juft otlar</b>	<b>takrori y otlar</b>
<i>gul</i>	<i>changdo n</i>	<i>gulkosacha</i>	<i>o‘t- o‘lan</i>	<i>joy-poy</i>

O‘quvchilar topshiriqni mustaqil bajaradilar va doskada javoblarini navbat bilan yozadilar. Otning tuzilishiga ko‘ra turlarini o‘z so‘zlari bilan izohlaydilar.

Topshiriqni tez, aniq va xatosiz bajargan guruhchalarga rag‘bat kartochkalari beriladi.

**3-topshiriq.** O‘quvchilarga «*Bizning jadval*» o‘yin-topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi dars boshida ajratilgan beshta kichik guruhga o‘yin-topshiriq shartini tushuntiradi. O‘quvchilar hukmiga havola etilgan slayd yoki qog‘oz variantdagi “Gul” matnining davomini o‘qib chiqadilar. Otlarning tuzilishiga diqqatlarini qaratadilar va shu asosda o‘z jadvallarini tuzib, unga matn tarkibidagi otlarni joylashtirib chiqadilar.

**GUL (davomi)**

**(3-matn)**

**Tuguncha** – urug‘chining kengaygan pastki qismi Uning ichida urug kurtak joylashgan. Tugunchadan meva hosil bo‘ladi. Tugunchalar gulning boshqa a‘zolariga nisbatan joylanishiga qarab ostki va ustki bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra, tuguncha bir va ko‘p uyali bo‘ladi.

**Ustuncha** – urug‘chining o‘rta qismi. U tuguncha bilan tumshuqchani birlashtirib turadi. Uning ichi g‘ovak bo‘ladi.

**Tumshuqcha** – urug‘chining (ustunchaning) eng yuqori qismi – uchi. U changlarni ushlash uchun xizmat qiladi.

**Gulqo‘rg‘on** —gul ochilguncha changchi va urug‘chilarni o‘rab, tashqi ta‘sirdan saqlab turadi. U oddiy yoki murakkab bo‘ladi.

Gulqo‘rg‘on bo‘laklarining rangi asosan bir xil bo‘lsa, u **oddiy gulqo‘rg‘on** deyiladi. Oddiy gulqo‘rg‘on yashil rangli oddiy gulkosacha yoki gulto‘jdan iborat bo‘ladi. Lola, chuchmoma, gulsafsarning guli oddiy gulqo‘rg‘onli bo‘ladi.

Agar gulqo‘rg‘on gulkosacha va gulto‘jdan tashkil topgan bo‘lsa, **mu- rakkab gulqo‘rg‘on** deyiladi. Ko‘pchilik o‘simliklar (olma, g‘o‘za, olcha, noklning guli murakkab gulqo‘rg‘onli bo‘ladi.

Gulqo‘rg‘on bo‘laklari qo‘shilgan yoki qo‘shilmagan gullar ham bor. Gulqo‘rg‘on bo‘laklari qo‘shilgan gullarga qo‘yechak, karnaygul, marmarak kabilarning guli misol bo‘ladi. Gulqo‘rg‘on bo‘laklari qo‘shilmagan gullarga o‘sma, g‘o‘za, olma, nok, lola, boychechak va boshqa o‘simliklarning gullari kiradi.

Tabiatda yana shunday gulli o‘simliklar borki. ular gulining gulqo‘rg‘oni vo‘qolib

Topshiriq bo'yicha o'quvchilar quyidagicha jadval tuzishlari kerak:

sodda otlar	tub	sodda yasama otlar	qo'shma otlar

O'quvchilar birinchi ustunga *qism, meva, gul, a'zo, chang, rang, lola, chuchmoma, olma, g'o'za, nok, marmarak, tabiat, tol, terak, tut, yong'oq* kabi o'nlab misollarni yozadilar; ikkinchi ustunga esa **tuguncha, urug'chi, ustuncha, tumshuqcha, changchi, bo'lak, ko'pchilik, o'simlik, olcha, o'sma, tangacha** kabi misollarni; uchinchi ustunga esa *urug'kurtak, gulqo'rg'on, gulkosacha, gultoj, gulsafsar, qo'ypechak, karnaygul, boychechak* kabilarni topadilar va yozadilar.

O'quvchilar otlarning tuzilishiga ko'ra turlarini mustaqil ravishda farqlaydilar.

G'olib guruhlarga rag'bat kartochkalari beriladi.

**4- topshiriq.** «**Kim topqir?**» o'yin-topshirig'i asosida tashkil etiladi. Guruhchalarga "Gul" matni asosida 2ta rasm taqdim etiladi va rasmlarni izohlash topshirig'i beriladi.



1- rasm. **Murakkab**

**g'o'za guli.** 1-

2-gulkosacha; 3-gultojbarg; 4-gulning ichki qismi.

**gulqo'rg'onli**  
ostgulkosacha;



**2-rasm. Gultojisimon addiy gulqo'rg'onli lola guli.** 1–gulqo'rg'on bo'laklari; 2–changchilari; 3–urug'chi.

O'quvchilar bu topshiriqni ham o'z guruhlari bilan birgalikda bajaradilar. Ular topshiriqni bajarish jarayonida "Botanika" kitoblaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Topshiriqni tez va to'g'ri bajargan guruhlar rag'batlantiriladi.

**5-topshiriq. «Men topdim»** o'yin-topshirig'ida berilgan «Gul» chaynvordini barcha guruhlar birgalikda bajaradilar. Buning uchun o'qituvchi tomonidan «Gul» chaynvordi rangli rasmda yoki monitorda ko'rsatiladi va chaynvordda ismi tarkibida "gul" oti ishtirok etgan qizlarning nomlari berilganligi, ularni kerakli harflar bilan to'ldirib topishlari zarurligi aytiladi. O'quvchilar darhol topshiriq ijrosiga kirishadilar.



Topshiriqni (*Guli, Gullola, Gulsanam, Gulxanda, Gulbar, Gulshoda, Gulsevar* tarzida) to'g'ri bajarganlarga rag'bat kartochkalari beriladi.

Dars xulosasini o'quvchilar chiqaradilar: Otlar tuzilishiga ko'ra sodda tub, sodda yasama, qo'shma, juft va takror bo'lishini aytadilar. Shuningdek, tabiat in'om etgan gullarning ham joni, yashash tarzi borligi, ularni asray olgan kishilargina madaniy insonlar bo'lishini (o'qituvchi ko'magida) e'tirof etadilar.

O'qituvchi otlarning tuzilishiga ko'ra turlari sirasida kamroq uchraydigan, biroq mavjud bo'lgan qisqartma otlar (*O'ztele radiokompaniya, o'zfilfak*) hamda murakkab otlar (*o'zi+bo'lar+chilik*) ham borligini e'tirof etadi va keyingi darsda aynan shunday otlar xususida to'xtalishlarini bildiradi. O'qituvchi oquvchilarini, o'zlari aytganlari kabi, madaniy insonlar safida bo'lishlarini juda-juda istashini bildiradi.

G'olib guruh aniqlanib o'quvchilarga qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.

*Uyga vazifa* sifatida 6-sinf "Botanika" darsligida berilgan "Gul" mavzusi tarkibidan qo'shma otlar qatnashgan 5ta gapni topib ko'chirib yozish topshirig'i beriladi.

Bolalarga tabiatni asrash, o'simliklarni avaylash xususida o'zoq gapirgandan ko'ra ona tili mashg'ulotlarida fanlararo aloqadorlikni amaliy ta'minlash ko'proq foyda beradi, deb hisoblaymiz.

**Йўлдашева Х.– ҚарДУ хузуридаги ХТХҚТМОҲМ катта ўқитувчиси**  
**БАДИЙ МАТИДА КОММУНИКАИТ ФЕЪЛ-АТВОРИИИ**  
**ИФОДАЛОВЧИ БИРЛИКЛАРИИИГ СОЦИАЛ ХОСЛАИИШИ**

*Аннотация:* Мақолада феъл-атвор ифодаловчи бирликларнинг социолингвистик хусусиятлари ёритилган.

*Калит сўзлар:* нутқ, социал хосланиши, феъл-атвор, салбий, ижобий, жинс, ёш, ижтимоий ҳолат, мулоқот вақти, вазият.

Кишиларнинг маънавий савияси ва маданиятлилик даражаси, одоб-ахлоқи, умуман, ички дунёсининг қанчалик бой эканлигини ифодаловчи воситалардан бири унинг нуткидир. Алоқа-аралашувда сўзловчи ва тингловчи зарурий компонентлар сифатида иштирок этар экан, улар нутқ шароити ва вазиятига боғлиқ равишда мулоқотни белгилайди. Коммуникантларнинг мулоқоти кўпинча диалогик суҳбат тарзида амалга ошади. Шу сабабли коммуникантларнинг характер-хусусиятлари, асосан, диалогик дискурсда юзага чиқади. Мулоқот жараёнида иштирокчилар ўзаро муносабатлар тенглигини таъминлаш учун коммуникатив мақсадга мос келадиган ҳаракатлар режасини тузади ва ушбу режани амалга ошириш имконини берадиган тил бирликларини танлайди. Шунга мувофиқ, нутқ мураккаб ва ўзгарувчан табиатли, ўз-ўзидан ташкил этилувчи синергетик жараён бўлиб, вазият ва шароитга қараб ўзгариб туради. Бунга кўнлаб омиллар таъсир қилади. С.Мўминов коммуникантларнинг жинси, ёши, ижтимоий ҳолати, мулоқот вақти, вазият кабиларни ана шундай омиллар сифатида қайд қилади, уларни ички ҳамда ташқи таъсир бирликлари тарзида ажратади. [1,19]. Мазкур омиллар таъсирида коммуникантларнинг феъл-атвори турлича намоён бўлади ва бу ҳолат уларнинг нутқида акс этади. Зотан, "Яхши тониб гапиради, ёмон қониб" деган халқ мақоли замирида ҳам нутқ эгасига хос феъл-атворнинг ижобий ёки салбий жиҳатига ишора сезилиб туради. Киши феъл-атворига хос ижобий хулқ, албатта, нутқ жараёнида иштирок этаётган сўзлар воситасида ўзини намоён қилади. Шунингдек, коммуникантнинг ёши, жинси, савияси каби бир қатор социал омиллар ҳам нутқ жараёнига таъсир этмай қолмайди. Кекса ёшли сўзловчилар нутқида кўпинча босиқлик, насихатгўйлик сифатлари мавжуд бўлади. Мазкур сифатларни намоён қилиб турувчи омил ва воситалар ўзига хос лисоний ёки нолисоний бирликлар орқали амалга оширилади. Бу ҳолат эса лисоний ходисаларнинг нутқий хосланишларини таъминлашга хизмат қилади. Кексалар нутқида хос жиҳатлар ёшлар учун ибрат ва намуна бўлиб хизмат қилишини таъминлайди.